



**O'ZMU XABARLARI**

**ВЕСТНИК НУУЗ**

**АСТА NUUZ**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI**

**JURNAL  
1997 YILDAN  
CHIQA  
BOSHLAGAN**

**2023  
3/2/1  
Tabiiy fanlar  
turkumi**

Bosh muharrir:

**MADJIDOV I.U.** – t.f.d., professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

**ERGASHOV Y.S.** – f-m f.d., professor

Tahrir hay'ati:

**Sabirov R.Z.** – b.f.d., akademik

**Aripov T.F.** – b.f.d., akademik

**Salixov SH.I.** – f.-m.f.d., prof.

**Otajonov Sh.** – f.-m.f.d., prof.

**Tojiboyev K.SH.** – b.f.d., akademik

**Sattarov J.S.** – b.f.d., akademik

**Abduraxmanov T.** – b.f.n.

**Davronov Q.D.** – b.f.d., prof.

**Qodirova Sh.** – k.f.d.

**Xaitboyev A.X.** – k.f.d.

**Mahkamov M.A.** – k.f.d., prof

**Umarov A.Z.** – g.-m.f.n., dots.

**Toychiyev X.** – g.-m.f.d.

**Kushakov A.R.** – g.-m.f.n., prof.

**Hikmatov F.** – tex.f.d., prof.

**Norqulov N.** – f.-m.f.n., dots.

**Yangibayev A.E.** – k.f.f.d., PhD.

**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

**TOSHKENT – 2023**



O'DK: 631.4:633.1.

**Jurakul SATTAROV**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti professori., q.x.f.d., akademik*  
**Samad MAHAMMADIYEV**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b., q.x.f.f.d*  
*E.mail: samad3182@mail.ru*  
**Umedillo KASIMOV**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi*  
**Shaxnoza ASILBEKOVA**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
**Ozoda ORTIQOVA**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
**Komila O'RINBYEKOVA**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
**Durdona RO'STAMOVA**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
**Husnida TOJIMATOVA**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
**Jasurbek HOSILBEKOV**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*  
**Lochinbek OCHILOV**,  
*O'zbekiston Milliy universiteti talabasi*

#### INFLUENCE OF THE NORM AND RATIO OF MINERAL FERTILIZERS ON THE GERMINATION OF TRITIKALE

Annotation

This article presents information on the study of the influence of various norms and ratios of mineral fertilizers on tritikale plants. For this purpose, vegetative experiments were carried out in conditions of typical gray soils. Fertilizers N<sub>150</sub>P<sub>50</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>50</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>100</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>100</sub>K<sub>100</sub>, N<sub>250</sub>P<sub>150</sub>K<sub>100</sub>, N<sub>250</sub>P<sub>150</sub>K<sub>150</sub>, N<sub>300</sub>P<sub>150</sub>K<sub>150</sub> kg/ha were used in the experiment. During the experiment, it became known that the norms and proportions of mineral fertilizers affect the germination of tritikale plants in different ways.

**Key words:** tritikale, norms and ratios of mineral fertilizers, fertility, vegetative experience, scheme, soil.

#### ВЛИЯНИЕ НОРМЫ И СООТНОШЕНИЯ МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ НА ВСХОЖЕСТЬ ТРИТИКАЛЕ

Аннотация

В данной статье представлены сведения по изучению влияния различных норм и соотношений минеральных удобрений на растения тритикале. С этой целью были проведены вегетативные опыты в условиях типичных сероземов. В опыте использовали удобрения N<sub>150</sub>P<sub>50</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>50</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>100</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>100</sub>K<sub>100</sub>, N<sub>250</sub>P<sub>150</sub>K<sub>100</sub>, N<sub>250</sub>P<sub>150</sub>K<sub>150</sub>, N<sub>300</sub>P<sub>150</sub>K<sub>150</sub> кг/га. В ходе эксперимента стало известно, что нормы и пропорции минеральных удобрений по-разному влияют на всхожесть растений тритикале.

**Ключевые слова:** тритикале, нормы и соотношения минеральных удобрений, плодородие, вегетативный опыт, схема, почва.

#### TRITIKALENI UNIB CHIQISHIGA MINERAL O'G'ITLAR ME'YORI VA NISBATINING TA'SIRI

Аннотация

Mazkur maqolada tritikale o'simligiga mineral o'g'itlarni har xil me'yori va nisbatining ta'sirini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Buning uchun tipik bo'z tuproqlar sharoitida vegetatsion tajribalar o'tkazildi. Tajribada N<sub>150</sub>P<sub>50</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>50</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>100</sub>K<sub>50</sub>, N<sub>200</sub>P<sub>100</sub>K<sub>100</sub>, N<sub>250</sub>P<sub>150</sub>K<sub>100</sub>, N<sub>250</sub>P<sub>150</sub>K<sub>150</sub>, N<sub>300</sub>P<sub>150</sub>K<sub>150</sub> kg/ga me'yorda o'g'it qo'llandi. Tajriba davomida ma'lum bo'ldiki, mineral o'g'itlar me'yori va nisbati tritikale o'simligini unib chiqishiga turlicha ta'sir ko'rsatar ekan.

**Kalit so'zlar:** Tritikale, mineral o'g'itlar me'yori va nisbati, unuvchanlik, vegetatsion tajriba, sxema, tuproq.

**Kirish.** Bugungi kunda jahon aholisi soni keskin ortib borayotganligi sababi, insonlarni oziq-ovqat mahsulotlari va chorvani yem-xashak bilan ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aholini don va don mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va chorva mollariga yem-xashak yetkazib berish maqsadida 1875- yilda Shotlandiya olimi Vilson bug'doy va javdarning dastlabki duragayini yaratadi. D.Shernaev ma'lumotlari bo'yicha Tritikalening yozda ekiladigan (avgust oyida) turli navlarida 1989-1991 yillari gektariga o'rtacha 73,5-102,58 s/ga, kuzda ekilganda 48,6-97,3 s/ga xosil olingan. Respublikamizda 1989-1990 yillari 1000 gektardan ko'p yerlarga tretikale ekilgan va Qashqadaryo viloyatida mo'l-ko'l hosil olingan. Bugungi kunda Tritikalening jahon bo'yicha ekiladigan maydoni 2 mln. gektardan ortiq [9].

Tritikale - bug'doyning lotincha nomini 1-qismi (*triticum*) va javdarning lotincha nomini 2-qismi (*secale*) so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Tritikale oraliq ekin o'rmida yoz so'ngida va kuzda ekilsa mo'l-ko'l xosil berdi. O'zbekistonning lalmikor yerlarida ekilmaydi. Javdar va xashaki bug'doydan nisbatan yuqori hosili, to'yimli konsentrat ozuqa va mo'l sifatli ko'k massa berishi bilan ajralib turadi. Lekin non pishirish uchun sifati bug'doydan past. Ammo bug'doy va javdarga nisbatan